

## INGLIZ VA O'ZBEK ADABIYOTIDA EKVIVALENTLIK HAMDA ULARNING XUSUSIYATLARI

Komila Iskandarova

263- maktab o'qituvchisi

[komilaiskandarova01@gmail.com](mailto:komilaiskandarova01@gmail.com)

**Annotatsiya.** tarjima tillararo muloqotning alohida turi sifatida asosiy e'tiborni ikki til tizimining semantik jihatiga qaratishni taqozo etadigan ijodiy jarayondir. Chunki axborotning to'laqlonliligi asosini turli tillar matnlarining semantik uyg'unligi tashkil etadi. Lisoniy tarjimaning muhim vazifalaridan biri "translatologik ekvivalentlik" tushunchasini muayyan qilishdan iboratdir. XX asrning ikkinchi yarmidan beri, "Ekvivalentlik" tushunchasi tarjimashunoslikda eng ko'p muhokama qilingan mavzulardan biriga aylandi. Asrlar davomida so'zma so'z tarjima yoki erkin tarjima munozaralaridan so'ng, tarjimashunoslar nazariyaning asosiy termini bo'lgan "ekvivalentlik" tushunchasiga qaratdilar. Bu maqolada "Ekvivalentlik" tushunchasi, tarjima nazariyasining tarixiy davrlarida orttirgan ma'nolari bilan qiyosiy va tanqidiy tarzda ko'zdan kechiriladi.

**Kalit so'zlar:** *ekvivalent, nazariya, matn, tarjima, lingvistika, adekvatlik.*

Tarjima ilmiy-nazariy o'rganish ob'yekti bo'lishi zarur. Unda tahlil va uyg'unlashtirish jarayoniga, matnda nimaga ahamiyat berish lozimligiga, qanday axborot zarurligi va maqsadga erishish uchun nimalarga e'tibor qilishga qaratilgan bo'lishi lozim. Tarjima murakkab jarayon bo'lib, tilshunoslik, psixologiya, madaniyat, adabiy jarayon va boshqa omillarni o'z ichiga oladi. Tarjima nutqning bir turi sifatida tilshunoslik nuqtai nazaridan qarab o'giriladi, ya'ni tarjima jarayoni bu bir tilagi matnni ikkinchi bir tilga ag'darish – transformatsiya qilish demakdir. Mana shu har xil bajariladigan o'zaro ikki til o'rtasidagi ishlar, tilshunoslik nuqtai nazaridan tarjima jarayoni deb aytamiz.

Ekvivalentlik borasida juda ko'p olimlar o'z qarashlarini bildirib o'tishgan. Bizning ham bu masalaga e'tiborimiz qaratilishi matnda uchraydigan turli lisoniy vositalarning morfologik, sintaktik, leksik, stilistik sathlardan asliyat va tarjima tillarida o'zaro ekvivalent yoki ekvivalenti mavjud bo'lmash holatlari bilan aloqadorlikda yuzaga keladi.

Tarjimada ekvivalent jarayoni manba tilidan tarjima tiliga o'tishda o'quvchida to'g'ri ma'lumotni shakllantirish holatida sodir bo'ladi. Tarjimaning maqsadi asliyat va tarjima matni o'rtasida ekvivalentlik aloqasini o'rnatish bo'lganligi sababli, to'laqlonli tarjimani ikki mezon bo'yicha baholash mumkin:

1) ishonchlilik va aniqlik (asliyat matnning ma'nosini unga fikr qo'shmasdan yoki olib tashlamasdan aniq tarjima qilish);

2) shaffoflik (ma'lum bir maqsadda tilning grammatik, sintaktik va idiomatik konventsionalitetini saqlab qolish) [4. 48b].

Ekvivalentlik tushunchasining asosiy ma'nosi aslida matematika va mantiq sohalariga asoslanganligi bilan bog'liq: ekvivalentlik ko'proq bu yerda tenglamaning bir-biriga mos keluvchi elementlari sifatida muhokama qilinadi. Bu qadar tor qamrovli ta'rifi, albatta, tarjima nuqtai nazaridan baxslidir. Yuqorida ifodalangan shaklda olinadigan bo'lsa, ekvivalentlik tenglamaning ikki element to'la mos tushish zarurligi kabi qabul qilinadi. Tarjima bilan bog'liq tilshunoslikka oid yondashularda ham shu nuqtai nazarga yaqin izohlar berilgandir. Misol uchun, Leypsig maktabida Kade, Jager va Neubert tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda tarjima tilshunoslikning kichik sohasi deb belgilangan, shu sababli ham o'rganish sohasini terminli mantlar bilan cheklab qo'ygan. Matn turi bilan bog'liq bu chegaralanganlikka istisno qilinsa, masalan, adabiy matnlar kiritilganda, lingvistik nuqtai nazardan ilgari surilgan nazariy baholarning amal qilishi zaiflashadi. Chunki asliyat tilidagi tarjima birligining tarjima tildagi ekvivalenti bilan bir-biriga qarama-qarshi kelishi



**Impact Factor: 9.9****ISSN-L: 2544-980X**

mumkinligi texnik matnlarda qo'llanilgan lingvistik tanlov tufayli ko'proq ko'rinadi. Adabiy matnlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan estetik struktura esa nazariy bashoratlarning chegaralarini kengaytiradi. Ko'ksal ta'kidlaganidek, "ekvivalentlikka "bir xillik" so'zining sinonimi sifatida qaralsa, tushuncha jiddiy e'tirozlarga sabab bo'lishi mumkin". Ekvivalentlik tushunchasini yanada funksional tarzda izohlashga qaratilgan baholash harakatlari quyida keltirilgan asliyat matni va tarjima matni o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishga asoslangan bo'ladi.

Badiiy tarjimaning mukammal bo'lishida ekvivalentlik muhimmi yoki adekvatlik, degan savol tarjimashunoslikda katta bahslarga sabab bo'lib kelmoqda. Ekvivalent lotincha "aequivalens" so'zidan olingan bo'lib, "teng kuchli", "bir xil ma'noda" deganidir.

Tilshunos tarjimashunos olimlar ekvivalentlikning bir necha tiplari mavjud ekanligini ta'kidlashadi. Quyida ulardan asosiy 5ta tipini aytib o'tamiz.

I. Ekvivalentlikning birinchi turida tarjimalarning asliyatga uyg'unligi ko'z ilg'amas darajada namoyon bo'ladi. Asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabatlar asosan ushbu ko'rinishlarga ega buladi:

- a) leksik tarkib va sintaktik qurilishdagi nomuvofiqlik;
- b) ikki holatda ham bir xil fikr bayon etilayotganligiga qaramasdan, asliyat va tarjimada ifoda etilgan axborot o'rtasida bevosita mazmuniy yoki mantiqiy bog'lanishning ko'zga tashlanmasligi;
- d) asliyat va tarjima matnlari mazmunlari orasidagi umumiylik darajasi ekvivalent sifatida tan olingan boshqa tarjimalarga nisbatan nihoyatda past.

II. Ekvivalentlikning ikkinchi turida tarjimaning asliyatga yaqinligi foydalanilgan til vositalari ma'nolarining bir xil emasligi bilan izohlanadi. Bu guruhda asliyat bilan tarjima matnlarini tashkil etadigan ko'pchilik so'z va sintaktik qurilmalar o'rtasida bevosita yaqinlik ko'zga tashlanmasada, ikki til matnlari ekvivalentlikning birinchi turiga nisbatan mazmunan ko'proq o'xshashdir.

III. Ekvivalentlikning uchinchi turida asliyat va tarjima matnlari orasida quyidagi xususiyatlar ko'zga tashlanadi: ikki tilning mazmunan o'zaro mos ifoda vositalari leksik tarkib va goho sintaktik qurilish jihatlaridan to'la uyg'un bo'lmaydilar.

IV. Ekvivalentlikning to'rtinchi turida asliyat va tarjima o'rtasidagi munosabat ikki til matnlari leksik tarkiblarining yanada ko'proq o'xshashligi bilan izohlanadi:

1. I told him what I thought of her - Men unga qiz haqidagi fikrimni aytdim.
2. Ne was never tired of old songs - Eski ashulalar hech qachon uning joniga tegmas edi.

V. Nihoyat, beshinchi turda asliyat va tarjima matnlari orasidagi ekvivalentlik yuqori darajada namoyon bo'ladi:

1. I study at the University - Men unversitetda o'qiyman.
2. The house was sold for 10 thousand dollars - Uy 10 ming dollarga sotilgan edi.

Ekvivalentlikning beshinchi tipiga xos xususiyatlar mukammal ko'rinishda adekvat tarjimada namoyon bo'ladi. Adekvat lotincha "ad-aequo" so'zidan olingan bo'lib, "o'xshash", "bir xil", "teng", "to'la mos", "bir-biriga aynan o'xshash" kabi ma'nolarni anglatadi. Ayrim tarjimashunoslar fikricha, tarjima qilinayotgan til me'yoriga qat'iy amal qilgan holda asosiy mazmunni uzatish ekvivalent tarjima bo'lib, bu maqbul holatdir.

Adekvatlik tushunchasi esa ekvivalentlikdan ko'ra kengroq qamrovga ega. V. Vinogradovning fikricha, ekvivalentlik tarjimaning asliyatga yaqinlashuvini ta'minlovchi bir omildir, xolos. Matnning asliyatga yaqinlashuv darajalari ko'plab omillarga, xususan, tarjimon mahorati, til va madaniyatlarning bir-biriga yaqinlik jihati va tarjima qilinayotgan matnning xarakteriga bog'liq.

Adekvat tarjima esa pragmatik muammolarni ekvivalentlikning maksimal darajasida hal etadi va janrning uslubiy talabi va tarjima imkoniyatidan kelib chiqib, til me'yoringa buzilishiga yo'l qo'ymaydi. A.V. Feodorov esa umuman bu terminga hojat yo'qligini, "adekvatlik" istilohining o'rnini to'liq tarjima jumlasini bilan o'zgartirish kerakligini ta'kidlaydi. Olimning fikricha, to'laqonli tarjima asliyatning janr xususiyatlari va funksional-stilistik komponentlariga to'la mos keladi. Ammo nazarimizda adekvatlik tushunchasini "to'laqonli tarjima" yoki "ekvivalentlikning bir pog'onasi" deb e'tirof etib bo'lmaydi. Birinchidan adekvatlik – nisbiy tushuncha mukammal tarjima emas. Ya'ni tarjima asliyatga adekvat degani to'laqonli asliyatning o'zi degani emas. Tarjimada asliyatning nolisoniy jihatlaridan (ohang, ruhiyat, uslub) nimadir saqlanib qolganligini anglatadi. Ikkinchidan esa adekvatlik emas, balki ekvivalentlik – adekvatlik sari tashlangan bir pog'onadir. Yuqoridagilardan



**Impact Factor: 9.9****ISSN-L: 2544-980X**

ko‘rinib turibdiki, olimlarning ekvivalentlik va adekvatlik tushunchasiga yondashuvi ularning o‘z ixtisosliklari doirasida chuqur fikrlaganliklaridan va shu bilan cheklanganliklaridan kelib chiqqan. Adekvatlik muammosiga to‘xtalgan olimlarning birortasi badiiy tarjima, xususan, she‘r tarjimasida ruhiyat, g‘oya, botiniy ma‘no va ohang kabi muhim omillarsiz adekvatlikka erishish mumkin bo‘lmasligiga ahamiyat bermagani bu muammo hanuz o‘z echimini topmaganini ko‘rsatadi. G.D.Voskoboynik fikricha, ekvivalentlik bilan cheklanuvchilar “matn – bu sistema (tizim)”, deb qarasarlar, adekvatlik tarafdorlari “matn – bu tirik organizm” deb hisoblaydilar.

**XULOSA**

Tarjimashunoslikda ekvivalentlik aynan tenglik emas matn mazmun mohiyatidan kelib chiqqan xolda nisbatan eng mosini tanlashdir. Shundan kelib chiqib, ekvivalentlik xam muqobillik xam aynan teng emas, balki nisbiy ma‘noda eng mosini anglatadi. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, ekvivalentlik va muqobilikni sinonim sifatida qabul qilish o‘zbek tarjimashunosligidan yozilayotgan tadqiqotlar va maqolalardagi chalkashlikka ma‘lum ma‘noda barxam beradi. Albatta, bu uta baxsli va munozarali muammo aslida alohida bir tadqiqot miq‘yosida ko‘rib chiqilish zarur. Chunki o‘zbek tarjimashunosligi kelajagi uning fan sifatida mazmun mohiyatini ochib beradigan tushunchalarga aniqliq kiritishdadir.

Ko‘p asrlik adabiy an‘anaga ega bo‘lgan milliy adabiyotlarning hammasida ham tarjima o‘ziga munosib o‘rinni ishg‘ol qiladi. Binobarin, dadil aytish mumkinki, 21 tarjima tarixini yaratmay, tarjimaning har bir davrda qanday qonuniyatlar asosida rivojlangani, ayni milliy adabiyot taraqqiyotida qanday tarjima maktablari tashkil topganligi va bu tarjimalar jahon madaniyatini rivojlantirishda qanday ro‘l oynaganini aniqlamay turib, o‘sha milliy adabiyot tarixini to‘la, mukammal yoritish mumkin emas.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. A.D.Shveyser Teoriya perevoda: status, problemi, aspekti. M., 1988.
2. G‘.Salomov Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent, 1978.
3. Nigora Azzamova. Linguistic and cultural features of artistic visual means in Khudoyberdi Tokhtaboyev’s works. Available online 25 January 2025
4. Salomov G'. Til va tarjima. -Toshkent. Fan, 1966.
5. Zokirova, N. S. "Discursive ontology of (literary) translation. Innovative development in the global science." Boston, USA.–2022.
6. Л. П. Крысин Иноязычные слова в современном русском языке Издательство “Наука” Москва 1968
7. И. И. Огиенко. Иноземные элементы в русском языке, Киев, 1915
8. Ўзбек тилининг изоҳли лўғати “Москва “Рус тили” нашриёти 1981. 1 том
9. Türkçe sözlük 1. Atatürk Kültür, dil ve tarih yüksek kürümü Türk dil kurumu. Ankara 1988.

